



**YOSH HARBIY XIZMATCHI OFITSERLARNI MULOQOT
MADANIYATINI SAMARALI SHAKLLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK TAHLILI**

Matyakubov Elyor Rajapovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyatini samarali shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Muloqot madaniyati harbiy xizmat jarayonida boshqaruv samaradorligi, jamoaviy muvofiqlik va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot psixologik, pedagogik va madaniy omillarni, shuningdek, innovatsion pedagogik metodlar, treninglar va amaliy mashg‘ulotlar yordamida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish usullarini o‘rganadi. Natijalar harbiy ta’lim muassasalari va harbiy qismlarda yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini samarali shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yosh harbiy xizmatchi, ofitser, muloqot madaniyati, samarali shakllantirish, psixologik tayyorgarlik, pedagogik metodlar, harbiy ta’lim, kommunikativ ko‘nikmalar, ma’naviy tarbiya.

**ЭФФЕКТИВНОЕ ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ У
МОЛОДЫХ ВОЕННЫХ ОФИЦЕРОВ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ
ЗАРУБЕЖНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

Аннотация.

В данной статье анализируются теоретические и методологические основы эффективного формирования коммуникативной культуры молодых военнослужащих-офицеров. Коммуникативная культура рассматривается как важный фактор, обеспечивающий эффективность управления, командную согласованность и моральную устойчивость в процессе военной службы. Исследование изучает психологические, педагогические и культурные факторы, а также методы развития коммуникативных навыков с использованием





инновационных педагогических подходов, тренингов и практических занятий. Результаты исследования способствуют разработке рекомендаций по эффективному формированию коммуникативной культуры молодых офицеров в военных учебных заведениях и подразделениях.

Ключевые слова: молодой военнослужащий, офицер, коммуникативная культура, эффективное формирование, психологическая подготовка, педагогические методы, военное образование, коммуникативные навыки, нравственное воспитание.

EFFECTIVE FORMATION OF COMMUNICATION CULTURE AMONG YOUNG MILITARY OFFICERS IN THE INTERPRETATION OF FOREIGN STUDIES

Abstract.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations for the effective formation of communication culture among young military officers. Communication culture is considered an important factor in ensuring management efficiency, team cohesion, and moral stability during military service. The study examines psychological, pedagogical, and cultural factors, as well as methods for developing communication skills through innovative pedagogical approaches, trainings, and practical exercises. The results of the study contribute to the development of recommendations for the effective formation of communication culture among young officers in military educational institutions and units.

Keywords: young serviceman, officer, communication culture, effective formation, psychological training, pedagogical methods, military education, communicative skills, moral upbringing.

Kirish. Harbiy jamoada va fuqarolik hayotida sogʻlom muhitni yaratishda inson omili va muloqot madaniyati katta ahamiyatga ega. Chunki har qanday jamiyatda nizolarni, huquqbuzarlik holatlarini oldini olish yoki ularni samarali hal qilish koʻpincha toʻgʻri muloqot va muzokara olib borish koʻnikmalariga bogʻliq boʻladi. Shu boisdan, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot psixologiyasi va muzokara madaniyatini chuqur oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.[1]





Yosh ofitserlar uchun psixologik barqarorlik, kommunikativ kompetensiya va muloqot madaniyati muhim ahamiyatga ega. Muloqot madaniyati harbiy jamoada o'zaro ishonch, intizom va sog'lom muhitni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Yosh ofitserlar xizmat faoliyatini endi boshlagan bo'lib, ular psixologik bosim, moslashuv jarayonlari va ijtimoiy-psixologik muhitga singish bosqichlaridan o'tadilar. Shu sababli, ularning muloqot madaniyatini shakllantirishda psixologik yondashuvlar zarur.

Yosh ofitserlar bo'linmada qo'l ostidagi harbiy xizmatchini tezda o'rganish va ular bilan kelgusida qanday muloqot jarayonini olib borishi uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

So'roq metodlari ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki, kompyuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Bu metodlarni qo'llashni qator metodologik qiyinchiliklari mavjud, chunki, bu yerda doim shaxslararo o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sir shakllari mavjud bo'lib, tadqiqotchining sub'ektiv munosabatlarini ham inkor qilib bo'lmaydi. Tadqiqot mobaynida shaxslararo idrok va sub'ektiv bir-birini tushunishga qaratilgan barcha qonuniyatlar ishlaydi. Shunga qaramay, juda ko'p ijtimoiy psixologik ma'lumotlarni to'plashda so'roq metodlari eng qulay usullar sifatida ishlatib kelinmoqda.

Shunday qilib, so'roq metodlari ofitser bilan bo'ysunuvchi harbiy xizmatchining bevosita (suhbat, intervyu) yoki bilvosita (anketa) muloqoti tufayli birlamchi ma'lumotlar to'plash usulidir. Odamlar tilidan yozma yoki og'zaki tarzda olingan fikrlar ma'lumotlarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Eng yaxshi suhbat yoki intervyu bu bevosita, erkin fikr almashinuvi sharoitida o'zaro fikr almashinuviga qaratilgan muloqotdir. Chunki suhbatdan farqli, intervyu aniq muammo doirasida, qat'iy bir





yo‘nalishda olib boriladi. Intervyu oluvchi suhbatdoshga nisbatan neytral mavqeda bo‘lib, uning fikrlashiga xalaqit bermasligi, ayniqsa, unga tazyiq o‘tkazmasligi lozim. Intervyu jarayonining samarali kechishi uchun suhbatdoshda o‘ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirib, birinchi so‘zlarni aniq, ravon, ifodali bayon qilish muhimdir.

Intervyu o‘tkazishga ofitserlar maxsus ravishda tayyorgarlik ko‘rishi kerak, chunki undan qator muhim sifatlarning bo‘lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada “rolli o‘yinlar” metodi yordamida psixolog yoki sotsiologlar maxsus tayyorgarlik kursidan o‘tadilar.

Anketa metodi hammaga tanish bo‘lgan usullardan biri. Lekin ko‘pincha anketani o‘tkazgan ofitser uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma‘lumotlarni qayta ishlab, sharxlash qiyinligini tasavvur qilmaydi. Yuqorida qayd etilganidek, anketaga kiritilgan savollarga ko‘ra anketa ochiq va yopiq turlarga bo‘linadi. Ochiq anketa respondentdan o‘z fikrini bilganicha bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollarining esa javoblari berilgan bo‘lib, tekshiriluvchi o‘ziga ma‘qul bo‘lgan, qarashlari, fikrlari bilan mos bo‘lgan javobni beradi. Ochiq savollarning kamchiligi respondentlarning har doim ham qo‘yilgan vazifaga yetarli darajada mas‘uliyat bilan qaramaganligi hamda yozilgan javoblarni statistik ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo‘lsa, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi tomonidan o‘z fikriga ergashtirishga o‘xshash holat yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bo‘lmaslikdir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki tavakkal bir variantni belgilab berishi mumkin.

Shuning uchun ham oxirgi paytda yarim yopiq savollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari, yana qo‘shimcha fikr bildirish uchun qo‘shimcha qatorlar qoldiriladi. Odatdagi anketa tuzilishi jihatdan uch qismga bo‘linadi:

1. Kirish qismi yoki “respondentga murojaat” deb ataladi. Bu qismda odatda tadqiqot o‘tkazayotgan tashkilot nomi, oddiy tilda tadqiqot maqsadlari va ularning qanday foydasi borligi, tekshiriluvchining shaxsiy ishtiroki nima berishi, olingan ma‘lumotlarning umumlashtirilgan holda ishlatilishi (anonimlilik), anketani to‘ldirish yo‘llari va boshqalar yoziladi. Yo‘riqnoma — murojaatning qanchalik yaxshi yozilganligi bevosita tekshiriluvchining ishga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir.





2. Asosiy qism. Bunga savollar kiritiladi, lekin savollar tartibiga ham e'tibor berish kerak, chunki boshidan boshlab qiyin savollar berilsa, bu narsa respondentni cho'chitib qo'yishi, hattoki, to'ldirmasdan, anketani qaytarib berishiga majbur qilishi ham mumkin. Shuning uchun boshida yengil, xolis savollar berib, tekshiriluvchini qiziqtirib olib, keyin qiyinroq, psixologik savollarga o'tish, oxirida yana "neytralroq" savollar berish maqsadga muvofiq.

3. Yakuniy qism yoki "pasportichka" respondentning shaxsiy sifatidagi ob'ektiv ma'lumotlarni olishga qaratilgan bo'lib, unda shaxsning jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, kasb-kori va boshqalar so'raladi[2].

Anketalar tarqatilish uslubiga ko'ra, qo'l bilan tarqatiladigan, pochta orqali yuboriladigan, gazeta yoki jurnallar orqali to'ldiriladigan formalarga bo'linadi.

To'plangan ma'lumotlarga, odatda, statistik qayta ishlov beriladi yoki ular kompyuterlar yordamida analiz qilinadi.

Muloqot jarayoni uchta asosiy komponentga bo'linadi:

- muloqot jarayonida axborotni tushunish va ongli baholashga qaratilgan kognitiv komponenti;

- suhbatdosh bilan muloqot jarayonida unga nisbatan hissiy munosabat va empatiya hisoblanuvchi emotsional komponent;

- shaxs muloqot jarayonida o'zini tutishi, xatti-harakatini boshqarishi va irodaviy kuch hisoblanuvchi volitiv komponentligi[3].

Yosh ofitserlarda yuqoridagi komponentlar rivojlanish bosqichida bo'ladi, shuning uchun ularning muloqot madaniyatini shakllantirishda maxsus psixologik metodikalar talab etiladi.

Tadqiqotda yosh harbiy ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik aspektlarini o'rganish uchun quyidagi usullar va metodlardan foydalaniladi:

- yosh harbiy xizmatchi ofitserning stressga chidamliligi, moslashuvchanligi, emotsional intellekti va empatiya darajasini baholash uchun psixologik testlar metodi;

- yosh ofitserning harbiy jamoa muhitiga moslashuvi, rahbar-bo'ysunuvchi munosabatlar va muloqotdagi ochiqlikni aniqlash uchun kuzatuv va intervyular metodi;

- amaliy va nazariy mashg'ulotlar davomida situatsion mashg'ulotlar, rol o'ynash va mentorlik tizimi orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi kommunikativ treninglar[4].





AQSh, Xitoy, Turkiya, Pokiston va Eron davlatlarining Qurolli Kuchlarida xizmat qiluvchi yosh ofitserlarning psixologik tayyorgarligi va stressga chidamliligi internet tarmog'iga joylangan ma'lumotlar hamda suniy intellekt (AI) orqali o'rganildi. O'rganish natijasida quyidagi ma'lumotlar aniqlandi:

AQSh Qurolli Kuchlarida yosh harbiy xizmatchi ofitserlarni stressli sharoitlarda qaror qabul qilish va aniq muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun jang sharoitiga (real vaziyatga yaqinlashtirilgan) moslashtirilgan treninglar va simulyatsiyalar orqali rivojlantiriladi. Bu esa kelajakda yosh ofitserlarni yetuk professional kadr sifatida yetishib chiqishiga hamda harbiy bo'linmalarni mohirona boshqarishga zamin yaratadi.

Xitoy xalq respublikasi va Turkiya davlatlarida yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning psixologik tayyorgarligiga va emotsional intellektni rivojlantirishiga katta e'tibor qaratiladi. Bu esa yosh ofitserlarning stressga chidamliligini oshiradi hamda harbiy jamoaning oldiga qo'ygan vazifasini bajarishda yuqori samaradorligini oshirishiga xizmat qiladi.

Pokiston va Eron islom Respublikalarida, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarni psixologik tayyorgarligi diniy va axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiriladi, bu esa ofitserlarni har qanday murakkab vaziyatlarda harbiy jamoani qat'iyatli muloqot asosida boshqarishga tayyorlaydi.

Yuqoridagi davlatlarning tajribalaridan kelib chiqib, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarni stressga chidamliligi va emotsional barqarorligi muloqot madaniyatining asosiy psixologik poydevorini tashkil qilishini anglab olishimiz mumkin. Bu ko'nikmalar ofitserlarning qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirishadi hamda jamoaviy muhitda samarali ishlash imkonini beradi degan xulosaga kelish mumkin.

Yosh ofitserlarda samarali kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish psixologik va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq.

Interaktiv metodlar (AQSh, Turkiya, Xitoy davlatlari misolida): yosh ofitserlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda seminarlar, treninglar, guruh ishlari va simulyatsiyalar orqali so'zlash, tinglash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari rivojlantirilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Etika va axloqiy qadriyatlar (Rossiya, Turkiya, Eron, Pokiston davlatlari tajribasida): boshliq bo'ysunuvchi o'rtasida o'zaro hurmat, sadoqat, mas'uliyat va





jamoaviylik kabi qadriyatlar muloqot madaniyatining shakllanishida psixologik barqarorlikni oshiradi.

Milliy va diniy qadriyatlar (Xitoy, Eron, Pokiston davlatlari tajribalari misolida): ofitserning shaxsiy va harbiy jamoaning xulqini tartibga solish orqali har qanday vaziyatda harbiy jamoani oldiga qo'yilgan topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishini ta'minlaydi.

Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda psixologik jihatdan eng samarali usullar interaktiv treninglar, guruh ishlari va qadriyatlar asosidagi muloqot metodlarini uyg'unlashtirishdir. Bu usullar yosh ofitserlarni nafaqat so'zlashga, balki jamoa bilan ishlashga, muammolarni hal qilishga va qaror qabul qilishga tayyorlaydi[5].

Bo'linmada jamoaviy ish va ijtimoiy muhit yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim psixologik omil hisoblanadi:

Rossiya davlati tajribasida: harbiy xizmatchilarning o'zaro ishonchi va hamkorlik muhitida muloqot madaniyati rivojlantiriladi.

Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya davlatlari misolida): Harbiy jamoada jamoaviy ishlarda hurmat va ishonch mustahkamlanadi.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur davlatlari misolida: Odatiy va ijtimoiy qoidalar asosida intizom va tartibni ta'minlash muloqot samaradorligini oshiradi.

Jamoaviy muhitda o'zaro hurmat va ishonchni shakllantirish psixologik jihatdan yosh ofitserlarni stressga chidamli va harbiy xizmatchilar bilan samarali muloqot qila oladigan rahbarga aylantiradi. Shu bilan birga, harbiy intizom va ijtimoiy munosabatlar muloqot jarayonini barqarorlashtiradi.

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar muloqot madaniyatini shakllantirishda psixologik qo'llab-quvvatlash vazifasini bajaradi:

Virtual simulyatsiyalar va interaktiv treninglar (AQSh, Xitoy, Turkiya davlatlari misolida): yosh ofitserlarni murakkab sharoitlarda tez va aniq muloqot qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Innovatsion pedagogik metodlar psixologik tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlab, yosh ofitserlarni murakkab qarorlarni qabul qilishga va jamoaviy ishlarni samarali boshqarishga o'rgatadi.





Yuqoridagi sanab o'tilgan zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar psixologik o'rganishni interaktiv va amaliy tarzda oshiradi, stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish va jamoa bilan samarali ishlash imkonini beradi.

Psixologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, yosh harbiy ofitserlarning muloqot madaniyatini samarali shakllantirish uchun quyidagi komponentlar juda muhimdir:

- yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda psixologik tayyorgarlik va stressga chidamlilikni rivojlantirish orqali ularning emotsional barqarorligini va qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiriladi;

- ofitserlarda kommunikativ ko'nikmalarni interaktiv metodlar orqali shakllantirish orqali ularni tinglash, so'zlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari shakllantiriladi;

- etika, axloqiy va milliy qadriyatlarni integratsiya qilish natijasida yosh ofitserlarda hurmat, sadoqat, mas'uliyat, jamoaviylik hissi shakllanadi;

- bo'linmada jamoaviy ish va ijtimoiy muhitni rivojlantirish harbiy xizmatchilar orasida ofitserlarga nisbatan o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratadi;

- texnologik va innovatsion yondashuvlardan foydalanishda virtual simulyatsiyalar va interaktiv treninglardan foydalanish yordamida ofitserlarda real vaziyatlarga tayyorlash amalga oshiriladi[6].

Ushbu yuqoridagi psixologik yondashuvlar birlashtirilganda yosh harbiy xizmatchi ofitserlar nafaqat harbiy mahoratga, balki muloqot madaniyati va jamoaviy ishlash ko'nikmalariga ham ega bo'ladi, bu esa ularning professional samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

AQSh, Isroil va Germaniya davlatlarining harbiy tizimlarida yosh harbiy xizmatchi ofitserlarni tayyorlash yondashuvlari, stressni boshqarish va emotsional intellektni rivojlantirish metodlari chop etilgan maqolalar, ilmiy adabiyotlar hamda suniy intellekt (SI) orqali o'rganilib tahlil qilinganda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyati va psixologik tayyorgarligini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashga yordam berdi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot jarayonida quyidagi psixologik to'siqlar mavjudligi aniqlandi:





Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning harbiy boshqaruvda muloqot madaniyatining yetarli darajada emasligi;

Harbiy xizmatchilar bilan muloqotga kirishishda yosh ofitserlarning bilim, ko'nikma va malakalari yetishmasligi;

oliy harbiy bilim yurtida olgan nazari bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirilmaganligi.

Xorij tajribalarida esa psixologik tayyorgarlik amaliy va tizimli, stressni boshqarish rivojlangan, muloqot madaniyati strategik ahamiyatga ega va harbiy bo'linmalarda psixologik yordam mavjudligi kuzatiladi.

AQShda yosh ofitserlar uchun aktiv tinglash va liderlikni rivojlantirish, Isroilda stressga chidamlilik va emotsional rahbarlik, Germaniyada ichki yetakchilik va axloqiy ta'lim asosida muloqot madaniyati shakllantirilib borishi yosh ofitserlarni harbiy jamoadagi liderlik qobiliyatlarini tezda shakllanishiga zamin yaratayotganini ko'rsatmoqda[7].

O'zbekiston harbiy tizimida esa psixologik treninglar va maslahat xizmatlari rivojlanmoqda, ammo amaliy integratsiya va tizimlilik yetarli darajada emas.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh ofitserlarning muloqot madaniyati nafaqat ularning individual muvaffaqiyati, balki butun jamoaning funksional salohiyati uchun muhimdir. Ofitserning samarali muloqoti uning psixologik barqarorligi, emotsional intellekti va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Amerikalik yozuvchi, psixolog va fan jurnalisti Daniyel Golemanning "Emotional Intelligence" ("Hissiy intellekt") asarida "Hayotdagi muvaffaqiyat faqat aqliy salohiyat (IQ) bilan emas, balki hissiyotlarni tushunish va boshqarish qobiliyati bilan ham belgilanadi"[8] deb ta'riflaydi.

Harbiy jamoada yosh harbiy xizmatchi ofitserlar quyidagi shartlarni ta'minlash muhim:

- harbiy xizmatchilar bilan ochiq va ishonchli muhitni yaratish;
- yosh ofitserlarni jamoaviy qo'llab-quvvatlash;
- ofitserlarga intizomiy yondashuv hamda insoniy muloqot;
- mentorlik va individual psixologik qo'llab-quvvatlash.





Shuningdek, yosh ofitserlar uchun kommunikativ va psixologik tayyorgarlikni tizimli ravishda kuchaytirish zarur.

Xulosa o'rnida, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyati, balki butun harbiy jamoaning samarali faoliyati uchun muhimdir. Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarga psixologik yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar va ularni ruhiy qo'llab-quvvatlash orqali samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xorij tajribalaridan foydalangan holda psixologik treninglar va maslahat xizmatlarini jangovar va ma'naviy ma'rifiy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirgan holda kengaytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimardonov Z.Sh., Xalilova N.I., "Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatida muloqot va muzokara psixologiyasi" darslik. (3-4 bet). Toshkent -2025.
2. Xalilova N.I., Amirova O.Q., "Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" JHU darslik. T-2022. (68-80 bet).
3. Hasanov A.Y. "Harbiy muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari". IQRO indexing elektron jurnali, 2025. iyun. (55-60)
4. Toxirov D.R. Harbiy psixologiya asoslari. Toshkent, 2023. (45-48)
5. Usmonov E.Sh. "Pedagogik faoliyat samaradorligida muloqotning psixologik xususiyatlari". Pedagogics jurnali, 2024. Aprel.
6. Nazarov A. "Yosh ofitserlarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning psixologik asoslari". O'zDJTU Ilmiy axborotlari, 2022.
7. U.S. Army "Leadership Doctrine", FM 6-22, 2015.
8. Goleman D. "Emotional Intelligence". Bantam Books, 1995.

